

SHOISLOM SHOMUHAMEDOVNING "GULBOG' NASIMI" (1992) ASARINING  
AXLOQIY-TARBIYAVIY VA BADIY AHAMIYATI

**Aliqulova Madina**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 2-  
bosqich talabasi

Shoislom Mahmudovich Shomuhamedov (1921–2007) o'zbek sharqshunosligi, tarjimonlik va adabiyotining yorqin namoyandaligidan biri sifatida o'zining "Gulbog' nasimi" (1992) asari bilan o'zbek adabiyotida alohida iz qoldirdi. Ushbu kitob muallifning oldingi "Gulbog'" (1972) va "Gulbog' sayri" (1978) to'plamlarining mantiqiy va badiiy davomi hisoblanadi. Asar sharqona hikmatli hikoyalar, falsafiy lavhalar, ruboiylar va hayotiy kuzatishlardan iborat bo'lib, unda muallif turmushdagi oddiy voqealar orqali chuqur axloqiy, ijtimoiy va falsafiy masalalarni ko'taradi.

"Gulbog' nasimi"ning asosiy o'ziga xosligi shundaki, muallif klassik sharq adabiyoti an'analari — xususan, Sa'diy Sheroziyning "Gulistoni", Jomiyning "Bahoristoni" va Hofiz Sheroziy ijodining ruhini zamonaviy o'zbek hayoti bilan uyg'unlashtirgan. Kitobdagi har bir kichik hikoya yoki ruboiy muallifning shaxsiy kuzatishlari, frontdagi xotiralari, ilmiy safarlari va kundalik hayotdagi voqealarga asoslanadi. Bu jihatdan asar nafaqat badiiy, balki memuar va didaktik xususiyatlarga ham ega.

Asarning markaziy g'oyasi — inson kamoloti va axloqiy tarbiyadir. Shomuhamedov "Xayot saboqi" (debocha) da oddiy samolyotdagi voqea orqali hurmatsizlik, takabburlik va insoniy munosabatlardagi nuqsonlarni fosh etadi. U Jomiy va Sa'diyning asarlariga ishora qilib, har bir hayotiy voqeada ibrat borligini ta'kidlaydi. "Dengiz va toshlar", "Bigiz va suzan", "Amal va bilim", "Bekorchi olim – barchaga zolim" kabi bo'limlarda mehnat, ilm, kamtarlik va mansab munosabatlari chuqur tahlil qilinadi. Muallif mansabparastlik, laganbardorlik, kaltafahmilik va shuhratparastlik kabi salbiy illatlarni keskin tanqid qiladi.

Oila va tarbiya mavzusi kitobda alohida o'rin tutadi. "Ona duosi – el muddaosi", "Kelin payvandi", "Tuni uning kiyilgan" kabi hikmatlarda ona mehri, ustoz-shogird munosabatlari, kelin-qaynonaning o'zaro hurmati va oilaviy mas'uliyat masalalari ko'tariladi. Shomuhamedov kelinni "poyvand"ga qiyoslab, oilaga yangi a'zo qo'shilishi murakkab va mas'uliyatli jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu fikrlar bugungi oilaviy munosabatlar muammolari fonida juda dolzarbdir.

Asarda mehnat va halollik mavzusi ham kuchli aks etgan. "Dengiz va toshlar" ruboiysida toshning dengizda sayqal topishi kabi inson ham mehnat orqali kamol topishini

ta'kidlaydi. "Uzum yig'inida" va "Rassom bo'yoqi boshqa" kabi hikoyalarida esa chin san'atkorlik va chin insoniylik mehnat va haloliyatda ekanligini ko'rsatadi.

Shomuhamedovning uslubi sodda, ravon va ibratli. U katta falsafiy fikrlarni kichik hajmli lavhalar va ruboiylar orqali ifodalaydi. Bu usul kitobni keng o'quvchilar ommasi, ayniqsa yoshlar uchun qulay qiladi. Ruboiylari Umar Xayyom an'anasini davom ettirgan holda, zamonaviy hayot muammolarini aks ettiradi. Masalan, "Sharq va G'arb birlasha, dunyo obod bo'lur" degan fikri madaniyatlararo dialog va globallashuv sharoitida muhim ahamiyatga ega.

"Gulbog' nasimi" bugungi O'zbekiston uchun bir necha jihatdan dolzarbdir. Birinchidan, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiya qilishda muhim manba hisoblanadi. "Uchinchi Renessans" g'oyasi doirasida milliy qadriyatlar va insoniy kamolotni shakllantirishda bu asar maktab va oliy ta'lim darsliklariga kiritilishi mumkin. Ikkinchidan, asar tarjimonlik va ilmiy ijod uyg'unligining yorqin namunasi sifatida yosh sharqshunoslar va adabiyotshunoslar uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan, globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida qisqa, mazmunli hikmatlar formatidagi asarlar yoshlar o'rtasida ma'naviy tarbiyani samarali olib borishga yordam beradi.

Umuman olganda, Shoislom Shomuhamedov "Gulbog' nasimi" asari orqali mumtoz sharq adabiyoti an'anelarini zamonaviy o'zbek hayotiga moslashtirdi va axloqiy tarbiyaning yangi usullarini taklif etdi. Bu kitob muallifning tarjimonlik mahorati, shoirlilik iste'dodi va falsafiy dunyoqarashining uyg'unligidan dalolat beradi hamda O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.